

## YUZI NURGA, QALBI DURGA TO‘LIQ USTOZ

**Dilrabo Quvvatova**

*BuxDU professori, filologiya fanlari  
doktori (DSc)*

Ilm quyoshga o‘xshaydi. Uning nuri tushgan har bir qalb charog‘on bo‘ladi. Bu charog‘onlik **odamiylik yog‘dulari** bilan yanada fayziyob bo‘ladi. **Butun umrini ilm shu‘lalari, insoniylik fazilatlarini bilan bezab kelayotgan, ko‘nglidagi ezguliklar yuzu ko‘zida aks etib turgan, bolalar adabiyoti deb atalmish beg‘ubor olamning kashfiyotchisi darajasiga ko‘tarila olgan taniqli adabiyotshunos olim, samimiy va kamtarin inson, ko‘plab shogirdlarning yo‘lboshchisi Rahmatilla Barakayev** haqida o‘ylaganimda, ko‘zimiz o‘ngida “**yuzi nurga, qalbi durga to‘liq ustoz**” gavdalanadi. Shu kunlarda qutlug‘ 70 yoshlarini nishonlayotgan zahmatkash adabiyotshunos hozir ham ilmsevar qalblar uchun navqironlik timsolidirlar. Bu – ustozdagi **yorug‘ qalb va ochiq chehrada o‘zini namoyon etib turadi.**

Ustoz Rahmatulla Barakayevni taniganimga 34 yil bo‘libti. Ta’kidlashim kerak, ilmning sermashaqqat yo‘llarida qoqilgan, qiynalgan vaqtlarimizda domla hamisha qo‘limizdan tutganlar, ruhiy-ma’naviy madad bo‘lganlar, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatganlar. Ustoz-olimning har bir tadqiqotchini hamisha **iliqlik va xushmuomalalik** bilan kutib olganlariga ko‘p marta guvoh bo‘lganman. Buni faqatgina ustozgagina xos bo‘lgan fazilat deb bilaman. Chunki O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutiga qadam ranjida qilgan har bir ilmtalab dastlab ustozga ro‘baro‘ kelgan. Chunki Rahmatilla Barakayev uzoq yillar shu dargohda ilmiy kotib bo‘lib ishladilar. Qolaversa, domla institutdagi **nufuzli ilmiy kengashning kotibi sifatida ham xayrli ishlar amalga oshirdilar, respublikamizda ilmiy salohiyatni ko‘tarishdek mas’uliyatli ishga munosib hissa qo‘shdilar.** Shu jihatdan domladagi **bag‘rikenglik, ilmparvarlik, yurtparvarlik, sadoqat, mehr-oqibat, vazminlik** kabi odamiylik jihatlari olimlik ostonasiga qadam qo‘yayotgan har bir tadqiqotchi uchun ibrat, namuna bo‘larlikdir.

Yana bir jihatni alohida qayd etgim keladi: O‘zbekistonda bolalar adabiyoti bilan shug‘ullangan va shug‘ullanayotgan olimlar barmoq bilan sanarli. Ustoz Oxunjon Safarovdan keyin domla shu **zalvorli yukni yelkalariga oldilar.** Ayniqsa, domlanning XX asr tongi bolalar adabiyoti, Abdulla Avloniy ijodi haqidagi salmoqli ishlari bu yo‘nalish rivojidagi **o‘ziga xos burilish** bo‘ldi. Shu bilan birga, R.Barakayevning XX asr o‘zbek bolalar adabiyoti namoyandalari ijodi tadqiq etilgan **monografiya, risola va maqolalari** bugungi kunda soha mutaxassislariga yaqin ko‘makchi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ustozning darslik, o‘quv qo‘llanmalari

ham bugungi kunda respublikamizdagi **oliy maktablarning filologiya fakultetlarida** o‘qitilmoqda. Qolaversa, ustozning ilmiy rahbarliklarida o‘zbek bolalar adabiyotshunosligi yo‘nalishida **10 ga yaqin falsafa doktorlari** tayyorlandi. Ular bugun yurtimizning turli nuqtalarida faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Bu – sanaganlarimiz qariyb yarim asrlik ilm yo‘lida chekilgan zahmatlarining samarasi, albatta.

**El sevgan olim, serfazilat inson, bag‘rikeng ustoz, beg‘ubor qalb egasi Rahmatulla Barakayev** qutlug‘ 70 yoshni qarshilash oldida turibtilar. Shu munosabat bilan Ustozni chin yurakdan muborakbod etamiz. Muhtaram domlamizga serfayz oilangiz, el xizmatiga kamarbasta farzandlaringiz, shirin-shakar nevara-evaralaringiz, sadoqatli shogirdlaringiz, hamiyatli do‘stlaringiz qurshovidagi umr karvoningiz bardavom bo‘lsin, deymiz. **Ustozga** Yaratgandan mustahkam sog‘lik, uzoq umr, ilm va ijod zavqini tilab qolamiz.